

Abulfayzxon



Abulfayzxon ibn Subhonqulixon

(1695-1747)

(1711-1747)

Ubaydullaxonning inisi. **Ashtarxoniylardan** bo'lgan Buxoro xoni. U hech qanday real hokimyatga ega emas, kundan-kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'llida bir „qo'g'irchoq” hukmdor edi, xolos. Uning davrida keyinchalik mang'itlar davlatining tashkil topishiga sababchi bo'lgan mang'itlar qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib olgan edi. U vaqtini ko'ngulxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketdi. Uning yetti farzandi bor edi. Mast chog'ida ularni o'limga mahkum etdi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirinib, omon qolgan. Xon deyarli davlat ishlarini nazorat qilmay qo'ydi. Shu tariqa, Buxoroda xon hokimiysi barham topdi. Oliy hokimiyat amalda oliy qo'shbegi bo'lib olgan Jovshon qalmoq qo'liga o'tdi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi feudal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Xiva, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dusjmanlarning Movarounnahrga bostirib kirishga qulay imkoniyat yaratdi. Abulfayzxon davrida o'zaro nizolar kuchaygan, mamlakat chuqur iqtisodiy-siyosiy tanazzulga yuz tutgan. Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga yetib bordiki, uning farmonlari saroydan tashqariga chiqmagan. Nodirshoh qo'shinlarining Movarounnahrga qilgan yurishlari natijasida Abufayzxon taxtdan ag'darilagn. Muhammad Rahimbiy buyrug'i bilan 1747 yilda Abulfayzxon Mir Arab madrasasi hujralaridan birida o'ldiriladi.

1924 yilda Abdurauf Fitrat unga bag'ishlab "**Abulfayzxon**" drammasini yaratgan.

2023-11-02 16:48:54